




BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

9/2023



9/2023

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 9, oktabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ

Fouzia A., Rasulov T.H.	Modified proximal point algorithm for minimization and fixed-point problem in geodesic space with positive curvature	4
Norkobilov A.T., Bakhtiyorov A.N., Elmanov J.B.	Modeling of membrane processes for the separation of azeotropic mixtures	9
Doliyev Sh.Q.	Juft regressiya va korrelyasiya tahlillari orqali noaniq sharoitlar uchun ekonometrik model tuzish	14
Dusanova G.M., Tadjiyeva M.K., Egamberdiyeva M.X., Qobilov F.Sh., Bozorov Sh.I.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida 3-7 yoshli bolalar uchun ratsional ovqatlanish tamoyillarini ishlab chiqish	20
Farxodov S.U.	Texnologik jarayonlarni optimallashtirishda texnik vositalarni tadqiq qilish	28
Jumayev J., Fatilloeva M.N.	Manbasiz turli materialli bir o'lchovli sohalarida issiqlik tarqalishini sonli o'rganish	35
Rahmonov E.S.	Bir jinsli sohalarida Karleman formulasi	43
Raxmatov I.I., Jo'rayev H.O., Mirzayev M.S., Halimov N.N.	O'zbekiston sharoitida quyosh fotoelektrik stansiyalarini ishlatishning ilmiy-texnik imkoniyatlari	48
Shaxriddinov F.F., Akbarov M.M., Egamberdiyeva M.X., Ergashov A.M.	7-12 yoshdagi bolalarni ratsional ovqatlanishining yangi tamoyillarini ishlab chiqish	58
Shaxriddinov F.F., Berdimuradov X.T., Ibragimov A.K., Irgasheva M.E., Shodiyeva E.B.	Sportchilar uchun funksional ovqatlanish mahsulotlarini tahlil qilish	66
Barakayev N.R., Uzoqov Y.A., Ergashev A.M., Sayfullayev N.I.	O'zbekiston sharoitida zamonaviy un ishlab chiqarish texnologik liniyasini narariy jihatdan asoslash	74
Шарипов М.З., Хайитов Д.Э., Эргашева Н. М. Олимпур Ф.И., Файзиева З.Х., Зокирова З.М.,	Доменная структура бората железа	79
Bozorov I.N., Rasulov T.H., Tosheva N.A.	Panjaradagi chekli o'lchamli qo'zg'alishga ega bir zarrachali Hamiltonian uchun Birman-Shvinger prinsipi	84
Tosheva N.A.	Uchinchi tartibli operatorli matrilsalar oilasi uchun Birman-Shvinger prinsipi va uning tadbiqlari	91
Akramova D.I, Qurbonova D.N.	On classification of singularities related to oscillatory integrals	99

Jumayeva Ch.I.	Ba'zi to'rt o'lchamli Li algebralarining lokal ichki differensiallashlari	106
Зарипов Г.Т.	Технология производства напитков на основе составляющих природного характера	110
Меражова Ш.Б	Эквивалентность обратной задачи поставленной уравнению смешанного типа интегральному уравнению Фредгольма 1-рода	114
Bazarova S.J.	Elementary thermodynamics	120
Суяров Т.Р.	Прямая задача для соответствующего уравнения дробной диффузии	127
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Navruzova M.G.	Tibbiy birliklarning folklor asarlaridagi genderologik tavsifi	133
Raxmanov B.A.	Surxondaryo etnodialektal xarakterdagi maqol va matallarning turlari hamda lingvomadaniy xususiyatlari	137
Nazarova S.A.	Turkiy tillarda shaxs tavsifining sintaktik ifodasi xususida	142
Akramov I.I.	An aphorism as an entire passage: mechanisms of structural-semantic organization	148
Nabiyeva Sh.I.	Formation and orthological genesis of the English literary language norms	154
Saidova M.U.	Ingliz adabiyotshunoslik lug'atlari xususida mulohazalar	158
Umurova Kh. Kh.	Linguoculturological analysis of axiological concepts of wedding rite in different cultures	164
Жўраева Ю.Ф	Ўзбек хотин-қизлар исмларида ой лексемасининг ўрни ва қўлланиши	168
Vaxidova F.S	Ziyorat turizmi terminlarining struktural qoliplari	173
Kilichev B.E.	Regionim – Buxoro toponimlarining bir guruhi	178
Мейлиева М.О.	Использование современных подходов в преподавании русского языка в условиях билингвизма: актуальные проблемы и рекомендации	182
Каримова Г.Х.	Лингвокультурологические особенности экклезионимов джизакской области	186
Қаҳҳорова Г.Ш.	Юкламаларнинг ёрдамчи сўзлар билан вазифадошлиги	192
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Latipova S.T.	Tarixiy asarlarda Buxoroning hukmdor ayoli tavsifi	203
Meliyev X.N.	Gulbadan Begimning "Humoyunnoma" asari va tarjimalarida keltirilgan ruboiyning adabiy tahlili	209
Тўхсанов Қ.Р.	Румий "Маснавийи маънавий" манзумасининг аслият ва ўзбекча таржимасининг рақамларда берилиши	213
Болтаева Г.Ш.	О'zbek adabiyotida ilk Muxammas	221
Abdullayeva X.N.	Ingliz hamda o'zbek ertaklarida g'aroyib safar motivi	225
Habibova M.N.	Description of the Orient in Lawrence's "Seven pillars of wisdom"	229
Karamova Sh.L.	Aruz – metaforik tafakkurning keng maydoni sifatida	234
Karimova Sh.K.	Zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyatida tovush takrorlarining o'ziga xos jihatlari	238
Muxtorova U.T.	Mumtoz adabiyot namunalari ilohiy motivlar va rivoyatlarning qo'llanilish tamoyillari	246
Urazaliyeva M.G'.	Maya Anjelu asarlarining adabiy tanqidchilar tomonidan tahlil qilinishi	251
Xolova M.B.	Badiiy matnda xushmuomalalik strategiyalarining voqelanishi	257

ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK SHE'RIYATIDA TOVUSH TAKRORLARINING O'ZIGA XOS JIHLARI

*Karimova Shaxnozaxon Karimovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
karimovashakhnoz@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyatida tovush takrorlari – alliteratsiya, assonans va konsonansning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari qiyoslangan. Maqola zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyati vakillari Habib Sa'dulla, Sirojiddin Sayyid, Abdulla Oripov, Usmon Azim, Ros Barber, Jeki Key, Kerol Enn Daffi, Kerol Rumens she'rlarida tovush takrorlarining ishlatilishi masalalariga bagishlanadi. Bundan tashqari, maqolada tovush takrorlarining she'riy nutqning musiqiyliigi, uning ohangdorligini oshirishdagi o'rni dalillangan. Umuman, maqolada fonetik takrorlarining zamonaviy she'riyatda qo'llanilishining poetik fikr takomiliga xizmat qilishi misollar yordamida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: alliteratsiya, assonans, konsonans, ohangdorlik, musiqiylik, turg'un alliteratsiya, kesishgan alliteratsiya, affiksalliteratsiya

ОСОБЕННОСТИ ЗВУКОВЫХ ПОВТОРОВ В СОВРЕМЕННОЙ АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. В данной статье сравниваются особенности и функции звуковых повторов – аллитерации, ассонанса и созвучия в современной английской и узбекской поэзии. Статья посвящена использованию звуковых повторов в стихотворениях представителей современной английской и узбекской поэзии Хабиба Садуллы, Сироджиддина Сайида, Абдуллы Орипова, Усмана Азима, Роса Барбера, Джеки Кейя, Кэрала Энн Даффи, Кэрала Руменса. Кроме того, в статье доказывается роль звуковых повторов в повышении музыкальности поэтической речи и ее мелодичности. В целом, в статье на примерах показано использование фонетических повторов в современной поэзии для совершенствования поэтической мысли.

Ключевые слова: аллитерация, ассонанс, консонанс, мелодичность, музыкальность, константная аллитерация, скрещённая аллитерация, аффиксальная аллитерация.

SPECIFIC ASPECTS OF SOUND REPETITIONS IN MODERN ENGLISH AND UZBEK POETRY

Abstract. This article compares the specific features and functions of sound repetitions – alliteration, assonance and consonance in modern English and Uzbek poetry. The article is devoted to the use of sound repetitions in the poems of modern English and Uzbek poetry representatives Habib Sadulla, Sirojiddin Sayyid, Abdulla Oripov, Usman Azim, Ros Barber, Jackie Kay, Carol Ann Duffy, Carol Rumens. In addition, the article proves the role of sound repetitions in increasing the musicality of poetic speech and its melodiousness. In general, the article shows the use of phonetic repetitions in modern poetry to improve poetic thought with the help of examples.

Key words: alliteration, assonance, consonance, melodiousness, musicality, constant alliteration, crossed alliteration, affixal alliteration

Kirish. Zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyatidagi eng ko'p qo'llanadigan tovush takrorlaridan biri – alliteratsiyadir. Alliteratsiya ham nasrda, ham nazmda qo'llaniluvchi fonetik takror unsuridir. U – boshlang'ich undosh tovushlarning ikki yoki undan ortiq yaqin so'zlarda takrorlanishini aks ettiruvchi adabiy vosita. Bunda har bir urg'uli so'zning boshida undosh tovushning takrorlanishi tushuniladi. Ingliz adabiyotshunosligida alliteratsiyaning turg'un va kesishgan alliteratsiya xili mavjudligi qayd etilgan. Turg'un alliteratsiyada muayyan tovush ketma-ketlikda har bir so'z boshida takrorlanib keladi. Kesishgan alliteratsiyada muayyan tovush so'zlar osha takrorlanib keladi [1.68]. Adabiyotshunos D.Quronovning fikricha: "Alliteratsiya (lot. Al –yonida, litera – harf) – she'riy nutqda (nasrda nisbatan ham) bir xil undosh

LITERARY CRITICISM

tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi.

Tadqiqot metodologiyasi. Alliteratsiya she‘rning alohida satri yoki misradagi so‘zlar guruhini fonetik jihatdan ajratadi, natijada she‘rning ifodaviyligi, musiqiyliigi, xushohangligi ortadi” [2,26]. Ingliz she‘riyatida alliteratsiyaning har ikkala ko‘rinishi ham qo‘llanganligini kuzatish mumkin. Buni alliteratsiya qo‘llangan she‘rlar misolida tahlil qilishga harakat qilamiz.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
You might forget the exact sound of her voice, Or how her face looked when sleeping. You might forget the sound of her quiet weeping Curled into the shape of a half moon, When smaller than her self , she seemed already to be leaving Before she left, when the blossom was on the trees And the sun was out, and all seemed good in the world. I held her hand and sang a song from when I was a girl – Heil Ya Ho Boys, Let her go Boys And when I stopped singing she had slipped away, Already a slip of a girl again, skipping off, Her heart light, her face almost smiling.[3]	Qaro qoshing qarolikda Qaro tunni xarob etmish [4,43]. Qay kunikim, kun jamoling Ko‘rdi bu ko‘z, dilrabo [4,71].

Yuqoridagi misralarda “q” va “k” undoshlari takroriga asoslangan alliteratsiya leksik ma’no ustiga qo‘shimcha she‘riy “bo‘yoq”, tegishli ohang va joziba berish vazifasini bajargan. Jeki Keyning “*Darling*” nomli she‘ri shoiraning eng yaqin do‘sti Julia Darling xotirasiga bag‘ishlangan. Shoir kitobxonlarning bu satrlarni o‘qib, o‘zlariga taskin topishlariga umid qiladi. To‘rt bandli, to‘rt qatorli misralardan tuzilgan bu she‘r erkin vaznda yozilgan. Shoir matnda bir necha takror va yarim qofiya namunalarini, shuningdek, mukammal qofiyaning yaxshi namunalarini ham mahorat bilan qo‘llaydi. Bunda shoir o‘lim mavzusini tilga oladi. U hozirgina vafot etgan kishi hayotda ularni sevganlar bilan yaqin bo‘lib qolishini, faqat odam ularga tayyor bo‘lganda ketishini nazarda tutadi. Ikkinchi baytning birinchi qatorida “*smaller*” va “*self*”, uchinchi baytning uchinchi qatorida “*slip*” va “*skipping*” so‘zlari kesishgan alliteratsiya bo‘lib kelgan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
I did not promise to stay with you till death do us part , or anything like that, so part I must, and quickly. There are things I cannot suffer any longer: Mother, you never, ever said a kind word or a thank-you for all the tedious chores I have done; There are parents who stroke their children’s cheeks in the dead of night and sing in the colourful voices of rainbows, red to blue.[5]	Visol – Sizsiz, Muhabbat- Siz Vatan ham, e’tiqod ham Siz, Vafo ham – siz, Baqo ham – siz, Lazizsiz barcha ne‘matdan [4,106].

Tahlil va natijalar. Habib Sa’dulla ijodida qofiyadosh, ohangdosh so‘zlarning yoki bir xildagi tovush hamda qo‘shimchalarning takroriga asoslangan alliteratsiya ko‘rinishlarini kuzatish mumkin. a) qofiyadosh so‘zlar alliteratsiyasi. Ushbu she‘rda alliteratsiya qofiyadosh so‘zlar va “s” tovushi takroridan yuzaga kelgan. Misralardagi olmoshlarning takrori esa qat’iy hukm, kuchli ta’kid, cheksiz hurmat kabi ma’nolarni ifodalashi barobarida, lirik qahramon dilida kechayotgan beg‘ubor ishq tuyg‘ularini nechog‘li bebaho va beqiyos ekanligini ko‘rsatmoqda. Ingliz tilidagi “*Divorce*” (“*Ajralish*”) 2 bandlik she‘r bo‘lib, jami 14 misradan iborat. Misralari erkin vaznda yozilgan ushbu she‘r ota-ona va bola munosabatlari talqiniga bag‘ishlangan. Xususan, shoir notiqning ota-onasiga munosabatini, ular farzand haqida qayg‘urishlarini ifoda etgan. Lirik qahramon idealidagi ota-ona bilan hayotdagi ota-ona u qadar muvofiq kelmasligi uni o‘yga toldiradi. Bunda shoir alliteratsiyadan samarali foydalangan. Dastlabki bandning birinchi va ikkinchi qatorlaridagi “*promise*” va “*part*” so‘zlarida [p] va ikkinchi banddagi “*children’s cheeks*” so‘zlarida esa [tʃ] tovushlari takrorlangan va o‘ziga xos ohangdorlik kasb etgan. Buni turg‘un alliteratsiya deyish mumkin.

LITERARY CRITICISM

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
Not a red rose or a satin heart. I give you an onion. It is a moon wrapped in brown paper. It promises light like the careful undressing of love. Here. It will blind you with tears like a lover. It will make your reflection a wobbling photo of grief. I am trying to be truthful. Not a cute card or a kissogram . I give you an onion.[6,9]	Ruhbaxsh dastur misol ustoz sabog‘i Barham berdi gina-quduratlarga “Toshkentnoma” bo‘lib adib mayog‘i Chorladi ijodga, yo‘lga, safarga ... [7,430] Men uchun har maktub bir butun olam, Har xat ola kelar qalbimga bahor. Onajonim yozar: “Sog‘misan, bolam?” “Boshingiz omonmi?! – deya so‘rar yor... Har kun xat olaman yaqin-olisdan – Ammadan, xoladan, tog‘a-jiyandan. Ishchi kasbimdan, Sinfdosh qizdan, Nechun xat kelmaydi, do‘stginam sendan?[7,48]

Shoir Habib Sa‘dullaning alliteratsiya qatnashgan she‘rlarida qo‘shimchalar takroridan hosil bo‘lganligini ham kuzatish mumkin. Demak, alliteratsiyaning 2-turi b) qo‘shimchalarning aynan takroridan iborat ko‘rinishi qo‘llangan. Yuqoridagi misollarda dastlab *ijodga, yo‘lga, safarga* so‘zlaridagi jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *-ga* hamda *ammadan, xoladan, tog‘a-jiyandan* kabi qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi shaxs otlariga qo‘shilgan *-dan* chiqish kelishigi qo‘shimchalari alliteratsiyani hosil qilgan. Kerol Enn Daffining “*Valentin*” nomli she‘ri muhabbat mavzusida yozilgan. Shoirning lirik qahramoni – ishqdan ozorlangan shaxs. Shu bois unda kamon sevgi ramzini ifodalab keladi. “*Valentin*” kunida sevishtanlar bir-birlariga sovg‘alar beradilar. Bu sovg‘aning nima bo‘lishi sevgining oldida u qadar ahamiyatli emas. Chunki haqiqiy muhabbat his-kechinmalarda, qadr-qimmatda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni oshiq sevmasa-yu, qimmatbaho sovg‘a bersa, unday sevgining keragi yo‘q. She‘r misralaridan shunday fikrlarni anglash mumkin. Bunda oshiq ma‘shuqaga piyoz beradi. Bundan tashqari, shoir avliyo Valentin kunida sevishtanlarning bir-biriga sovg‘a berishlarini yoqlamaydi. Lirik qahramon sevishtanlarning bir-biriga “qizil atirgul” va yurak shaklidagi sovg‘alar berishlarini u qadar oqlamaydi. Shuning uchun u har kunlik oshxonasidagi asosiy sabzavot – piyozni berishni ma‘qul ko‘radi. Bu ramziy ma‘noda muhabbatning barqaror, abadiy tuyg‘u ekanligini ta‘kidlaydi. She‘rdagi “*cute card or a kissogram*” satrda alliteratsiya qo‘llangan. Ingliz tilida “*c*” va “*k*” harflari [k] tovushini ifodalab keladi va tovush takrorini hosil qiladi. Bu bilan shoir muhabbatga nisbatan his-tuyg‘ularni yangicha ifodalash uchun piyozni tanlaydi.

Beloved sweetheart bastard.

Not a day since then I haven’t wished him dead.
 Prayed for it so hard I’ve dark green pebbles for eyes,
 Ropes on the back of my hands I could strangle with.[6,9]

Shoiraning ushbu she‘ri Miss Havisham tomonidan aytilgan monologdir. Kerol Enn Daffi feministik fikr tarafdori edi. Yuqoridagi she‘r Charlz Dikkensning “*The Great Expectations*” (“*Buyuk umidlar*”) romani qahramoniga bag‘ishlangan. Zamonaviy ingliz she‘riyati vakili Kerol Enn Daffi Shotlandiyaning Glazgo shahrida tug‘ilgan va Angliyada o‘tib-ulg‘aygan. U Angliyaning “*Poet-laureat*” (“*Poet-laureate*”) unvoniga sazovor bo‘lgan ilk ayol shoiradir (2009-yilda Britaniya qirolichasi Yelizaveta tomonidan taqdirlangan). Uning lirik qahramonlari o‘zidan tashqari, o‘zga kishilar hamdir. Shuning uchun ham yuqoridagi she‘rning lirik qahramoni Miss Havishamdir. She‘r xiyonatdan ozor chekkan lirik qahramonning qalb og‘riqlari, ruhiy iztiroblari, nafratli kechinmalaridan so‘zlaydi. Undagi o‘tli satrlardan ma‘lum bo‘ladiki, lirik qahramon xiyonat tufayli uzoq yillar iztiroblar ichida yashagan. Shu bois unda tushkunlik kayfiyati ustunlik qiladi. Ana shu kechinmalarni ifoda etishda kesishgan alliteratsiyadan foydalanilgan. Ayolning eri Janob Havishamning xiyonatidan keyin unda pessimistik kayfiyat tobora ortishi tasvirlangan. Bundan tashqari, she‘rning ehtirosli diksiyasi xonimning qalbidagi ehtirosga ishoradir. “*Beloved sweetheart bastard*” satrida [b] tovushi ketma-ket emas, so‘zlar osha takrorlangan. Lirik qahramon turmush o‘rtog‘iga murojaat etar ekan, uni “*sevgilim, azizim*” deyish barobarida xiyonatkorligiga ishora qilib, “*bastard*” so‘zini ishlatadiki, bu o‘ziga xos oksimorondir.

LITERARY CRITICISM

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O'zbek tilida</i>
<p>Here are my bees, brazen, blurs on paper, besotted; buzzwords, dancing their flawless, airy maps. Been deep, my poet bees, in the parts of flowers, in daffodil, thistle, rose, even the golden lotus; so glide, gilded, glad, golden, thus – wise – and know of us: how your scent pervades my shadowed, busy heart, and honey is art.[8]</p>	<p>Samimiyatni ham, Andishani ham, Lutfu karamni ham, Odob - esni ham, Mehru-oqibatni, insoniylikni – Bir so'zga qilib jom Keksani ko'rsam ham, Yoshni ko'rsam ham Labimdan uchajak kalom - "Assalom!" [7,56]</p>

"Bees" ("Asalarilar") she'ri 2011-yilda "The Bees" to'plamida chop etilgan. Mazkur to'plam 2011-yilda she'riy asarlarga beriladigan Kosta mukofotini qo'lga kiritadi. Bu shoiraning shoir-laureat unvonini olgandan keyingi birinchi to'plami hisoblanadi. She'rda asalarining poetik obrazi yaratilgan. Bu nihoyatda mehnatkash hasharotlar guldan gulga qo'nib, nektar izlaydilar va ularni o'z inlariga olib keladilar. Natijada tabiatning eng yaxshi mo'jizasi asalni yaratadilar. Darhaqiqat, shoirning san'atkorligi, uning qo'llagan har bir so'zi asalari mehnatiga qiyos etiladi. Asal yig'ish jarayonida asalari hamma gulga ham qo'navermaydi. Shoir ham so'zning eng saralarini satrlarga tizadi. Qolaversa, she'r ohangdorligini ta'min etgan vositalardan biri – alliteratsiyadir. Jumladan, birinchi bandda "*bees, brazen, blurs*"; *besotted; buzzwords*" so'zlaridagi [b], ikkinchi banddagi "*gilded, glad, golden*" so'zlaridagi [g], uchinchi banddagi "*heart and honey*" so'zlaridagi [h] undosh tovushlari takrorlanishi natijasida turg'un va kesishgan alliteratsiya yuzaga kelgan. Mazkur misralardan asalarining g'izillab nektar yig'ishi holatini lirik qahramon ko'z oldiga keltiradi. Bu so'zlar asal bilan bog'liq tushunchalarni bildirib keladi. Qolaversa, takror tovushlar va asalari harakatlarida uyg'unlik mavjud.

Ma'lumki, kelishik qo'shimchalari tilshunoslikda sintaktik munosabat hosil qilish vazifasini bajaradi, ya'ni so'zlarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajaradi. Habib Sa'dullaning yuqoridagi misralarida esa, bu affikslar grammatik vazifa bajarish bilan bir qatorda affiksalliteratsiyani hosil qilgan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O'zbek tilida</i>
<p>I'm fond, neroids and nymphs, unlike some, of the pig, of the tusker, the snout, the boar and the swine. One way or another, all pigs have been mine – under my thumb, the bristling, salty skin of their backs, in my nostrils here, their yobby, porky colognes.[6,28]</p>	<p>Poezdlarda, Samolyotlarda, Tramvayda, Saman otlarda Uchqurlikda bo'lib go'yo nur O'tmoqda umr [7,134].</p>

Bu she'r yunon afsonasi syujeti, aniqrog'i, Homerning "*Odissey*" asaridagi Kirka ma'budasi qissasi asosida yozilgan. Circe (Kirka) – quyosh xudosi Heliosning qizi. U Eeya orolida yashagan va u yerda Odisseyni Troya urushidan uyiga qaytayotganda uchratadi. U o'z odamlarini Kirka orolini kashf qilish uchun yuboradi va uning mehmondo'stligini qabul qiladi. Ko'pchilik uyga kiradi. Bir kishi tashqarida qoladi. O'sha kishi Kirkaning sehr yo'li bilan odamlarni cho'chqa, sher va boshqa hayvonlarga aylantirayotganini ko'radi. Bu odam Evrilox, Odisseyga ko'rganlarini aytib beradi. Ular tashqi ko'rinishlari o'zgartirilgan odamlarni ozod qilish rejasini ishlab chiqadilar. Germes ularga o'zgarimasligi uchun ma'lum bir o'simlikni ichimlikka solib qo'yishni aytadi. Odissey Kirkaga tahdid qiladi va uni erkaklarni o'z shakllariga qaytarishga majbur qiladi. Odissey Kirka bilan bir oy yashaydi, ketishidan oldin undan o'g'il ko'radi. She'r shu jihatdan voqeabandlik kasb etgan. Alliteratsiya yordamida shoir shu voqelikni badiiy ta'sirchan ifodalashga erishadi. Dastlabki satrdagi "*neroids* (suv parisi) va *nymphs*" (ma'budalar, ular uzoq umr ko'rgan, odamlarga mehribon, beozor bo'lishgan) so'zlarida [n] va to'rtinchi misradagi "*bristling*" (quyuq) va "*backs*" (orqa) so'zlarida [b] tovushi takrorlangan. Yuqoridagi voqelikni badiiy ifodalash maqsadida shoir alliteratsiyadan foydalangan. O'zbek she'riyati misollaridan ko'rinadiki, Habib Sa'dulla she'riyatidagi affiksalliteratsiya

LITERARY CRITICISM

alliteratsiyalar, asosan, kelishik qo‘shimchalari vositasida hosil qilingan. Demak, shoir bu qo‘shimchalardan uslubiy bo‘yoqdorlik, fonetik ohangdorlik ifodalashda unumli foydalangan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
Where I lived – winter and hard earth. I sat in my cold stone room choosing tough words, granite, flint, to break the ice. My broken heart – I tried that, but it skimmed, flat , over the frozen lake. She came from a long, long way, but I saw her at last, walking, my daughter, my girl, across the fields, in bare feet , bringing all spring’s flowers to her mother’s house. I swear the air softened and warmed as she moved.[6,31]	Gul shahrim, Gulzor shahrim, Gilamday guldor shahrim. Keksadan yoshigacha, Yerdan quyoshigacha. Billurday suvlaridan Yo‘ldagi toshigacha – Ishqibozi gulkor shahrim [7,31].

Kerol Enn Daffining “*Demeter*” (“*Demetra*”) deb nomlangan yuqoridagi she’ri yunon afsonasi asosiga qurilgan. Unda yunon hosildorlik ma’budasi Demetraning hayoti haqidagi eng ko‘p aytilgan afsonalarga ishora qilinadi. Unda yozilishicha, ma’buda Demetraning chaqmoqdor Zevsdan bo‘lgan Persefona ismli navnihol, sohibjamol qizi bo‘lgan. Persefona dugonalari – Okean qizlari bilan chamanzor Nisey vodiysida kapalak misoli guldan gulga uchib, betashvish yayrab, sho‘x-sho‘x o‘ynab yurgan kunlardan biridagi voqea qalamga olingan. Ular barq urib ochilgan gullar, muattar binafshalar, qordek oppok nilufarlar, qirmizi rang xushbo‘y sunbul gullarini terish bilan band edilar. Persefona ham ular bilan juda xursand edi. U peshonasiga padari Zevs yozgan qismatdan mutlaqo bexabar edi. She’rda yozilishicha, Aid Nisey vodiysida halovatda o‘ynab yurgan Persefonani ko‘radi-yu, tezda uni o‘g‘irlashga qaror qiladi. U yer ma’budasi Geyadan go‘zallikda qiyosi yo‘q bir gul paydo qilishini iltijo qilib so‘raydi. Geya rozi bo‘ladi. Natijada Nisey vodiysida mo‘jizali bir gul g‘uncha ochiladi. Bu gulning kishini sarxush etuvchi atri butun vodiya taraladi. Persefona gulni ko‘rib qoladi va unga qo‘lini cho‘zib, uzib oladi. Shunda birdan yer yoriladi-yu, uning qa’ridan qora otlar qo‘shilgan oltin jang aravada Aid chiqib keladi. U Persefonaning belidan quchib arobaga chiqaradi-da, ko‘z yumib ochguncha yer ostiga kirib, g‘oyib bo‘ladi. Persefona faqat bir marta chinqirishgagina ulguradi. Badqovoq Aid uni o‘g‘irlaganini hech kim payqamaydi. Buni faqat tangri Helios, ya’ni Quyosh ko‘radi. Yuqoridagi she’rda mana shu afsonaviy voqea ifoda etilgan. Dastlabki bandning uchinchi misrasida “*flat*” (tekis) va “*frozen*” (muzlagan) so‘zlari va to‘rtinchi bandning birinchi satrida “*feet*” (oyoqlar) va “*flowers*” (gullar) so‘zlarida [f] undoshi takrorlangan. Habib Sa’dulla yuqoridagi “*Sog‘inib keldim*” she’rida *g* va *sh* tovushlari vositasida alliteratsiya hosil bo‘lgan. Shoir ona shahri Namanganni “Gullar shahri” ekanligini shu she’rda madh etgan. Uni sog‘inib kelganini, undagi go‘zallikni biron joyda topmaganini chiroyli sifatlar orqali ta’riflagan.

And now we are no longer blessed, for the world
 will not **deepen to dream** in. The other knows
 and out of love reflects me for myself.
 We see our **silver skin** flash by like memory
 of somewhere else. There is a coloured ball
 we have to balance till the man has disappeared.[9]

Kerol Enn Daffining “*Dolphins*” (“*Delfinlar*”) she’rida istirohat bog‘ida asirlikda saqlanayotgan umidsiz delfinlarning azob-uqubatlari ifoda etilgan. Asirlikdagi delfinlar uchun dunyo hovuzdir. Hovuz atrofida faqat eshkaklar, xalqalar, cheksiz doiralari mavjud. Bu to‘siqlar ularning erkinlikka chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun ular bu joyni hech qachon tark etolmasliklarini his etishadi. She’rda tilsiz hayvonning iztirobli holatlari ifoda etilgan. Unda “*silver skin*” yoki “*deepen to dream*” kabi birikmalarda [s] va [d] undosh tovushlari takrorlanishidan alliteratsiya yuzaga kelgan. Bu orqali delfinlarning ozod bo‘lish orzusiga chuqur berilishlari ta’sirchan ochib berilgan.

The children are at the loom of another world.
 Their braids are oiled and black, their dresses bright.
 Their assorted heights would make a melodious chime.
 They watch their flickering knots like television.

LITERARY CRITICISM

As the garden of Islam grows, the bench will be raised.

Then they will lace the dark-rose veins of the **tree-tops**. [10]

Ingliz shoiri Kerol Rumensning “*Carpet-weavers, Morocco*” (“*Gilam to‘quvchilari, Marokash*”) asari uchinchi dunyo mamlakati deb atalmish Afrika hayotidan olingan. Unda turli yoshdagi bolalarning umrini masjidlarda ishlatiladigan gilamlarni to‘qish, ularga islom bog‘i naqshini solish bilan o‘tkazganlari ifoda etilgan. Bu bilan shoir ularni G‘arb bolalari bilan qiyoslaydi. Ehtimol, Marokash hayotini sharhlovchilar buni uchinchi dunyodagi bolalarning majburiy mehnati tarzida talqin qilishar. Aslida bu bolalarning yoshlikdan chiroyli ishlar bilan band qilishni ham anglatadi. She’rda bolalarning turli balandliklarning go‘zal tasvirini gilamlarda aks ettirishi ifodalangan. Lirik qahramon bundan hayratga tushganligini ko‘rish mumkin. Qolaversa, shoir qalamga olgan voqelik G‘arb dunyosiga yot. Demak, u turli mintaqalar va turli xalqlar hayotiga, madaniyatiga qiziqadi. Shu jihatdan Marokash musulmon bolalari hayotidan bir lavhani she’rga soladi. She’rning oltinchi misrasidagi “*the tree-tops*” so‘zlarida [t] tovushi takrorlangan. Bu turg‘un alliteratsiyani hosil qilgan.

Zamonaviy ingliz va o‘zbek she’riyatidagi eng ko‘p qo‘llanadigan tovush takrorlaridan biri bu assonansdir. *Assonans* – bir xil yoki turdosh unli tovushlarning ketma-ket yoki taxminiy bo‘g‘inlardagi takrorlanishi. Bu alliteratsiyadan ko‘ra kamroq ko‘zga tashlanadi, lekin muhimroq rol o‘ynaydi va misraning ohangida ishtirok etadi [11,177]. Mazkur takror turi she’riy matn ichiga o‘ziga xos bo‘yoq berish uchun qo‘llaniladi. Zamonaviy she’riyat namunalarini ko‘zdan kechirgan paytda tovush takrorlarining ishlatilishi naqadar she’rni jozibali va kitobxon uchun qiziqarli bo‘lishiga xizmat qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. She’riyatda assonansning vazifasi asosan ritm yaratish. O‘zbek adabiyotshunos olimi D.Quronov assonansga quyidagicha ta’rif beradi: “*Assonans* – (lot. *assonare* –uyg‘un jaranglash, fr. *assonance* – ohangdoshlik) – 1) she’riy nutqda (nasrga nisbatan ham) bir xil unlilar takroriga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi; she’rga xushohanglik baxsh etadi, musiqiylikni kuchaytiradi” [2,37].

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
Not tomorrow, I’m dreaming till dusk turns into dawn – dust, must most, moot, moon, mown, down – with my hand on an open unread book, a bird that’s never flown...distantly the birdsong of the telephone.[12]	Onajonim , har kim oshin Oshab o‘tsin dunyoda, Garchi fano har kimsaga Azaliy bir qismatdir. Lekin ona tiriklik ham Bilsang, yarim hikmatdir. Tushlarimda, mayli boshim Silab turgin, onajon , Qolganlarga endi umr Tilab turgin, onajon [13,106].

Assonansning yaqqol ko‘rinishi zamonavi o‘zbek she’riyatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Abdulla Oripov ijodidan olingan shoirning onasi Turdi Erdona Karvon qiziga bag‘ishlab yozgan “*Onajon*” she’rida “o” tovushining takrori assonansni yuzaga keltirgan. She’riy parchada unlilar takrori shoirning onasi xotirasini doimo yod olishi, onasi vafotidan keyingi iztirobli qalb kechinmalarini boshidan kechirganini ko‘rsatadi. She’rni o‘qir ekansiz, har bir farzand hayotida onaning o‘rni beqiyos ekanligini, onalar hayotimiz mazmuni ekanligi chiroyli va ta’sirli tasvirlangan. She’rning ta’sirli va jozibali chiqishida assonansning xizmati katta bo‘lgan. Kerol Enn Daffining “*A Dreaming Week*” (“*Orzular haftasi*”) asari Daffining she’r yozishga bo‘lgan muhabbati bilan chambarchas bog‘liq. She’r ichida melanxoliya ham bor. Ko‘pchilik Kerol Enn Daffi ham umri davomida bir “hafta” bo‘lib o‘tadigan munosabatlarni kuzatayotganini taxmin qilishadi. Bir tomondan, she’r she’riyatning go‘zalligini ta’kidlaydi, shu bilan birga munosabatlar olib kelishi mumkin bo‘lgan g‘amginlikka ishora qiladi. “*Dust, must*” bo‘ylab ichki qofiya she’rni oldinga suradi. Assonansning “*dust, must*” bo‘ylab jiringlab takrorlanishi she’rda uyg‘unlikni yaratadi.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
She brought her own; I never did. Hankies were presents from distant aunts in boxed sets, with transparent covers and script initials spelling <i>ponce</i> , the naffest	Ikki qumri bir-biriga mung‘ayar shoxlar aro, Ikkisi ham ikki hijron , ikki dildir, ikki zor [15,70].

LITERARY CRITICISM

Christmas gift you'd get – my brothers too, more often than not, got male ones: serious, and grey, and larger, like they had more sn ot. It was hankies that closed department stores, with headscarves, girdles, knitting wool and trouser presses; homely prop s you'd never find today in malls.[14]	
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--

Ros Barberning “*Material*” she’ri - bu ro‘molcha ramzi orqali o‘tmish va an’analar haqida gapiradigan qiziqarli va ta’sirchan she’r. She’r o‘quvchini qahramonning yoshligiga olib boradi va onasining ro‘molchalarga bo‘lgan mehrini ko‘rsatib beradi. Onasi ro‘molchalarni har doim o‘z oldida, odatda, yengida saqlab yurardi. Shoir o‘z farzandlarini o‘z yoshida qanday yashaganini o‘zi bilan taqqoslaydi va keyin onasining hayoti va o‘limini so‘nggi satrlarda eslaydi. She’rning uchinchi bandida kelgan “*snot*” va “*props*” so‘zlaridagi [o] tovushining takrorlanishi kuzatiladi. Bu she’rga o‘ziga xos ichki qofiyani baxsh etadi va ritmi kuchaytirib beradi. She’rni o‘qir ekansiz, assonansning she’rga o‘zgacha ritm bag‘ishlaganini ko‘rishimiz mumkin.

Yana bir tovush takrori konsonans – bu matn qatorida bir xil undosh tovushlarning so‘z boshida, o‘rtasida yoki oxirida takrorlanishi bo‘lib, ushbu poetik unsur nasrdan ko‘ra nazmda faol qo‘llaniladi. Konsonansning alliteratsiyadan farqli tomoni shundaki, alliteratsiya urg‘uli bo‘g‘indagi bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi hisoblansa, konsonans ketma-ket va undan ortiq so‘zlarda bir xil undosh tovushlarning takrorlanishidir. Konsonans foydali adabiy vositadir, ayniqsa, she’riyatda. Undosh tovushlarning takrorlanishi o‘quvchilar va tinglovchilar uchun dramatik eshitish effektini keltirib chiqarishi mumkin. Bu yozuvchilarga o‘z tinglovchilarining e’tiborini va diqqatini adabiy asar mavzusiga qaratish imkonini beradi [16].

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
If she were here she'd forget who she was, it's been so long, maybe n urse, a n anny, maybe a n un— Anon. [17]	Kelib qoldi bahor ham mana, Dalalarga sochib l olalar. Tepalikda quvonch-tantana – Chillak o‘ynab ketdi bolalar [18,50].

Kerol Enn Daffining “*Anon*” (“*Anon*”) asari tarixda unutilgan ayollarga e’tibor qaratish bilan boshlanadi, ehtimol ular o‘zlarining anonim ishlarini tan olmaydilar. Shoiraning “*Anon*” asari to‘rtta teng bo‘lmagan baytlarni o‘z ichiga oladi, har bir band 6 dan 9 qatorgacha o‘lchanadi. Tuzilishdagi tafvutlar nafaqat adabiyot va yozuv bilan bog‘liq, balki jamiyatda ayollar hayotining ko‘p jabhalarida qanday qadrlanmaganligini aks ettirishi mumkin. She’rning dastlabki ikki satrida shoira “*she*” (u-ayollarga nisbatan ishlatiladigan olmosh) olmoshini uch marta takrorlaydi. Ayol mavzusining uch marta takrorlanishi ayollarning doimiy mavjudligini ko‘rsatadi. Shoira bu uslub orqali ularning tarixda mavjudligini ifodalaydi. Misralar osha esa [n] tovushining konsonans bo‘lib kelganini uchratamiz. Shoir Usmon Azimning “*Bolalikning so‘nggi kunlari*” she’rida *l* undosh tovushi so‘zlar boshida, o‘rtasida va oxirida kelib, konsonansni hosil qilgan va o‘zgartiruv figurasi bo‘lgan inversiya bilan uyg‘unlashib kelgan. She’r qahramoni bolalikdan o‘smirlikka o‘tayotgan bolaning o‘y-xayollari, orzu-umidlari va ruhiy kechinmalari bayon etilgan. She’rning ta’sirchanligini va ifodaviyligini kuchaytirishda konsonansning mohirona qo‘llanilishi yuqori darajada xizmat qilgan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
Whether or not shadows are of the s ubstance such is the expectation I can wait to surprise my vision as a wind enters the valley: sudden and silent [19]	B xshi b obongizni b ilmaysiz ammo, B u ayyor o‘yinda sizlarni yutdim! Menga ber olmaysiz hech qanday b aho – Oyoqyalang bo‘lib dunyodan o‘tdim... [18,44]

Jeffri Xillning yuqoridagi she'rida [r] va [s] tovushlari konsonans effektini yaratish uchun ishlatgan. O'quvchilarni she'r mazmuniga ko'proq e'tibor qaratish uchun [s] tovushi ko'proq seziladi, chunki [s] tovushini o'qish davomida bir necha marta pauza qiladi. Zamonaviy o'zbek shoiri Usmon Azimning yuqoridagi "Mamamrayim baxshining bir davrada aytgani" she'riy parchasida ishlatilgan "Baxshi", "bilmaysiz", "Bu", "berolmaysiz", "baho", "bo'lib" so'zlarida b tovushi konsonansni hosil qilgan. Usmon Azim mazkur she'rida Mamamrayim baxshining etikdo'z bolalarning kishilarning boy va kambag'alligiga qarab, ularga bo'lgan muomalasi tilga olinishida shoir mohirona ravishda konsonansni qo'llaydi. Tovush takrorining ishlatilishi she'r ritmini kuchaytirib bergan.

Xulosa va takliflar. Tovush takrorlari qatnashgan misollardan quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, zamonaviy ingliz she'riyati namunalarida alliteratsiyaning ikki xil turg'un va kesishgan shakli uchraydi. Zamonaviy o'zbek shoirlari ijodida ham alliteratsiyaning faolligi kuzatiladi. Alliteratsiya she'rning ifodaviyligi va musiqiyligini oshirishni ta'min etadi. Habib Sa'dulla ijodida affiksali, ya'ni qo'shimchalar alliteratsiyasining qo'llanilishi so'z va jummalarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajargan.

Ikkinchidan, assonans zamonaviy ingliz she'riyatida alliteratsiyadan kamroq qo'llaniladi, ammo u muhimroq rol o'ynab, misra ohangining jozibali bo'lishida ishtirok etadi. O'zbek she'rlarida esa assonansning ichki qo'fiya va ritmi kuchaytirishga xizmat qilganligi kuzatildi.

Uchinchidan, konsonans nasrdan ko'ra she'riyatda ancha muhim poetik figura hisoblanadi. Bu unsur ingliz she'rlarida kitobxonning e'tibori va diqqatini tortsa, zamonaviy o'zbek she'rlarida she'r tuzilishi va jarangdorligiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Boulton M. *The Anatomy of Poetry*. Routledge & Kegan Paul, 1953. 1982. –P.68.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. *Адабиётшунослик лугати*. – Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.26,177.
3. <https://poemanalysis.com/jackie-kay/darling>
4. Саъдулла Ҳ. *Танланган асарлар. II жилд*. – Т.: Шарқ, 2002. –Б. 43,71,106.
5. <http://www.poemhunter.com/poem/divorce-61/>
6. Duffy C. A. *The World's Wife Collection*. –P.9,28,31.
7. Саъдулла Ҳ. *Танланган асарлар. I- жилд*. –Т.: Шарқ, 2002. –Б. 430, 38,56,134,37.
8. <http://margaret-cooter.blogspot.com/2016/04/poetry-thursday-bees-by-carol-ann-duffy.html>
9. <https://englishsummary.com/lesson/the-dolphins-poem-summary-and-analysis-isc/>
10. <https://literarydevices.net/carpet-weavers-morocco/>
11. Connell F.M. *A Textbook for the Study of the Poetry*. Norwood Press, U.S.A.1913. –P.177.
12. Duffy C. A. "A Dreaming Week". <http://a-poem-a-day-project.blogspot.com/2018/06/a-dreaming-week.html>
13. Орипов А. *Танланган асарлар. I-жилд. Шеърлар ва достонлар*. –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат наириёти, 2000. –Б.106.
14. Barber R. "Material". <https://harton-tc.co.uk/wp-content/uploads/custom-import-v2/12062018090124.pdf>
15. Саййид С. *Дил фасли. Шеърлар*. –Тошкент: Ўзбекистон, 2007. –Б.70.
16. <https://literarydevices.net/consonance/>
17. Duffy C. A. "Anon". <https://genius.com/Carol-ann-duffy-anon-annotated>
18. Азим У. *Сайланма. Шеърлар*. –Тошкент: Шарқ наириёт-матбаа концерни, 1995. –Б.50,44.
19. Hill G. *On Seeing the Wind at Hope Mansell*. <https://www.poetryfoundation.org/poetrymagazine/poems/48432/on-seeing-the-wind-at-hope-mansell>